# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



# TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BOʻYICHA MAʼLUMOT

*2023- yil 1- dekabr holatiga koʻra*
*(fermer va dehqon xoʻjaliklarisiz)*

*Maʼlumotlar Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi maʼlumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

# KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2023 - yil 1 - dekabr holatiga Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘ja-liklaridan tashqari) 99 460 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar soni 87 780 taga yetdi.

Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*2023 - yil yanvar - noyabr oylarida, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

111
16,8 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

1 385
11,7 %

Sanoat

1 170
15,9 %

Qurilish

5 954
18,7 %

Savdo

779
18,7 %

Tashish va saqlash

1 134
20,2 %

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

1 006
20,8 %


Axborot va aloqa

301
14,1 %

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

4 024
13,0 %

Boshqa turlar

2023 - yil yanvar - noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2022 - yilning mos davri bilan solishtirilganda 1 230 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 1 973 | 16,7 % | Yakkasaroy tumani | 1 403 | 16,2 % |
| Yunusobod tumani | 1 870 | 15,5 % | Shayxontohur tumani | 1 298 | 14,0% |
| Chilonzor tumani | 1 840 | 15,3 % | Uchtepa tumani | 1 027 | 12,8 % |
| Yashnobod tumani | 1 508 | 17,4 % | Sergeli tumani | 976 | 17,6 % |
| Olmazor tumani | 1 463 | 15,5 % | Yangihayot tumani | 677 | 25,1 % |
| Mirobod tumani | 1 419 | 16,4 % | Bektemir tumani | 410 | 15,3 % |

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**661**



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**11 864**



Sanoat

**7 364**



Qurilish

**31 881**



Savdo

**4 158**



Tashish va saqlash

**5 614**



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

**4 836**




Axborot va aloqa

**2 129**



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**30 953**



Boshqa turlar

2023 - yil 1 - dekabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 99 460 tani tashkil etib, bunda sohalar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar savdo – 31 881 tani, sanoat – 11 864 tani, qurilish – 7 364 tani tashkil etadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Yunusobod tumani | 12 042 | Yakkasaroy tumani | 8 657 |
| Chilonzor tumani | 12 025 | Mirobod tumani | 8 634 |
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 11 804 | Uchtepa tumani | 8 004 |
| Olmazor tumani | 9 423 | Sergeli tumani | 5 547 |
| Shayxontohur tumani | 9 266 | Yangihayot tumani | 2 696 |
| Yashnobod tumani | 8 688 | Bektemir tumani | 2 674 |

# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil yanvar - noyabr oylarida, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

110
17,0 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

1 382
11,7 %

Sanoat

1 165
15,9 %

Qurilish

5 953
18,7 %

Savdo

779
18,8 %

Tashish va saqlash

1 134
20,2 %

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

1 004
21,0 %


Axborot va aloqa

300
15,9 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

3 542
16,5 %

Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2023 - yil yanvar - noyabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 15 369 tani tashkil qilmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 1 898 | 18,1 % | Yakkasaroy tumani | 1 358 | 17,2 % |
| Yunusobod tumani | 1 796 | 16,8 % | Shayxontohur tumani | 1 264 | 15,5 % |
| Chilonzor tumani | 1 782 | 16,6 % | Uchtepa tumani | 1 000 | 13,6 % |
| Yashnobod tumani | 1 466 | 18,7 % | Sergeli tumani | 951 | 18,4 % |
| Olmazor tumani | 1 423 | 16,6 % | Yangihayot tumani | 656 | 26,6 % |
| Mirobod tumani | 1 375 | 18,1 % | Bektemir tumani | 400 | 16,0 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

647



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

11 826



Sanoat

7 345



Qurilish

31 872



Savdo

4 143



Tashish va saqlash

5 611



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

4 783




Axborot va aloqa

1 888



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

21 405



Boshqa turlar

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023 - yil 1 - dekabr holatiga 89 520 tani tashkil etmoqda. Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarning asosiy qismi: savdo – 35,6 foiz, sanoat – 13,2 foiz, qurilish – 8,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 6,3 foizni tashkil qilmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Chilonzor tumani | 10 757 | Yashnobod tumani | 7 857 |
| Yunusobod tumani | 10 705 | Mirobod tumani | 7 580 |
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 10 473 | Uchtepa tumani | 7 374 |
| Olmazor tumani | 8 587 | Sergeli tumani | 5 164 |
| Shayxontohur tumani | 8 135 | Bektemir tumani | 2 506 |
| Yakkasaroy tumani | 7 917 | Yangihayot tumani | 2 465 |

# Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil yanvar - noyabr oylarida, birlikda*

### Yillar kesimida soni




### Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

110
17,0 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

1 382
11,9 %

Sanoat

1 165
16,1 %

Qurilish

5 952
18,9 %

Savdo

778
19,1 %

Tashish va saqlash

1 132
20,4 %

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

1 004
21,5 %

Axborot va aloqa

298
16,3 %

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

3 399
16,5 %

Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili - kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2023 - yil yanvar - noyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022 - yilning mos davriga nisbatan 1 230 taga ko‘paydi.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 1 879 | 18,3 % | Yakkasaroy tumani | 1 345 | 17,3 % |
| Yunusobod tumani | 1 772 | 16,9 % | Shayxontohur tumani | 1 250 | 15,7 % |
| Chilonzor tumani | 1 764 | 16,7 % | Uchtepa tumani | 990 | 13,5 % |
| Yashnobod tumani | 1 454 | 18,9 % | Sergeli tumani | 944 | 18,7 % |
| Olmazor tumani | 1 417 | 16,7 % | Yangihayot tumani | 651 | 26,9 % |
| Mirobod tumani | 1 360 | 18,4 % | Bektemir tumani | 394 | 16,0 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

647



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

11 658



Sanoat

7 258



Qurilish

31 469



Savdo

4 065



Tashish va saqlash

5 548



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

4 659




Axborot va aloqa

1 830



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

20 646



Boshqa turlar

Tumanlar kesimida eng ko‘p kichik biznes subyektlari Chilonzor tumani (12,0 foiz), Yunusobod tumani (11,9 foiz), Mirzo Ulug‘bek tumani (11,7 foiz), Olmazor tumani (9,6 foiz) va Shayxontohur tumani (9,0 foiz) da faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda. Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Chilonzor tumani | 10 552 | Yashnobod tumani | 7 680 |
| Yunusobod tumani | 10 480 | Mirobod tumani | 7 376 |
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 10 257 | Uchtepa tumani | 7 320 |
| Olmazor tumani | 8 463 | Sergeli tumani | 5 060 |
| Shayxontohur tumani | 7 941 | Bektemir tumani | 2 469 |
| Yakkasaroy tumani | 7 761 | Yangihayot tumani | 2 421 |

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

### Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 94 |
| Shayxontohur tumani | 89 |
| Yunusobod tumani | 80 |
| Yashnobod tumani | 58 |
| Olmazor tumani | 54 |
| Segeli tumani | 52 |
| Yakkasaroy tumani | 50 |
| Chilonzor tumani | 46 |
| Mirobod tumani | 40 |
| Bektemir tumani | 38 |
| Uchtepa tumani | 37 |
| Yangihayot tumani | 23 |




O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

**Tumanlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Olmazor tumani | 1 436 |
| Chilonzor tumani | 1 383 |
| Uchtepa tumani | 1 280 |
| Yunusobod tumani | 1 146 |
| Yashnobod tumani | 1 090 |
| Mirzo Ulug‘bek r tumani | 1 072 |
| Shayxontohur tumani | 974 |
| Yakkasaroy tumani | 929 |
| Segeli tumani | 834 |
| Mirobod tumani | 677 |
| Yangihayot tumani | 529 |
| Bektemir tumani | 514 |

| | |
|---|---|
| 2023 | 11 864 |
| 2022 | 16 731 |
| 2021 | 16 066 |
| 2020 | 15 745 |
| 2019 | 14 925 |

Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 11,9 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,0 foizini ishlab chiqarish, 3,4 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,5 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish va 1,1 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.



# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko'ra, birlikda*

## Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Mirzo Ulug'bek tumani | 983 |
| Yunusobod tumani | 875 |
| Chilonzor tumani | 869 |
| Yashnobod tumani | 814 |
| Yakkasaroy tumani | 743 |
| Mirobod tumani | 658 |
| Olmazor tumani | 548 |
| Shayxontohur tumani | 541 |
| Sergeli tumani | 458 |
| Uchtepa tumani | 428 |
| Yangihayot tumani | 266 |
| Bektemir tumani | 181 |




O'zbekistonda keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda, zero bugungi bunyodkorlik - ertangi farovonlik demakdir. Shu sababli qurilish sanoati mamlakat iqtisodiyotining ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 49,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 41,2 foiz ulushni tashkil etdi.

| | |
|---|---|
| **715** | Fuqarolik obyektlarini qurish |
| **3 035** | Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari |
| **3 614** | Bino va inshootlar qurish |

# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Chilonzor tumani | 4 017 |
| Olmazor tumani | 3 537 |
| Yunusobod tumani | 3 358 |
| Uchtepa tumani | 3 344 |
| Mirzo-Ulug‘bek tumani | 3 232 |
| Shayxontohur tumani | 2 879 |
| Yashnobod tumani | 2 865 |
| Yakkasaroy tumani | 2 361 |
| Mirobod tumani | 2 281 |
| Sergeli tumani | 2 048 |
| Bektemir tumani | 1 069 |
| Yangihayot tumani | 890 |




Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 98,7 foizi yoki 31 469 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 42,0 foiz ulushni tashkil etadi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 50,2 foiz ulushni tashkil etadi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 7,8 foiz ulushni tashkil etadi.

**2 492**
Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

**15 987**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

**13 402**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

**Tumanlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Yunusobod tumani | 734 |
| Yakkasaroy tumani | 668 |
| Chilonzor tumani | 653 |
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 617 |
| Mirobod tumani | 564 |
| Olmazor tumani | 505 |
| Shayxontohur tumani | 502 |
| Yashnobod tumani | 491 |
| Uchtepa tumani | 389 |
| Sergeli tumani | 268 |
| Bektemir tumani | 130 |
| Yangihayot tumani | 93 |




2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati 2022 - yilning mos davriga nisbatan 74,9 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 14,2 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq - ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 85,8 foiz ulushini tashkil etdi.

**796** — Yashash bo‘yicha xizmatlar

**4 818** — Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar





# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

### Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 863 |
| Yunusobod tumani | 714 |
| Mirobod tumani | 574 |
| Chilonzor tumani | 552 |
| Yakkasaroy tumani | 511 |
| Shayxontohur tumani | 461 |
| Yashnobod tumani | 374 |
| Olmazor tumani | 318 |
| Uchtepa tumani | 216 |
| Sergeli tumani | 141 |
| Yangihayot tumani | 63 |
| Bektemir tumani | 49 |




2023 - yil 1- dekabr holatiga ko‘ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 25,5 foizini tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 11,0 foizini tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 63,5 foizini tashkil etadi.

| | |
|---|---|
| Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish | 339 |
| Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirish | 56 |
| Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar | 2 261 |
| Noshirlik faoliyati | 892 |
| Aloqa | 478 |
| Axborot xizmati ko‘rsatish sohasidagi faoliyat | 810 |

# Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

**Tumanlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Yunusobod tumani | 342 |
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 294 |
| Chilonzor tumani | 255 |
| Olmazor tumani | 238 |
| Shayxontohur tumani | 194 |
| Yashnobod tumani | 194 |
| Uchtepa tumani | 174 |
| Mirobod tumani | 125 |
| Yakkasaroy tumani | 119 |
| Sergeli tumani | 99 |
| Yangihayot tumani | 65 |
| Bektemir tumani | 30 |




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 1 888 ta yoki 88,7 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatadiki:

— 96,5 foiz korxonalar sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri keladi;

—Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 1,7 foizni tashkil etdi;

—Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,8 foizini tashkil etdi;



# Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Chilonzor tumani | 503 |
| Mirobod tumani | 471 |
| Yunusobod tumani | 467 |
| Mirzo Ulug’bek tumani | 445 |
| Yakkasaroy tumani | 439 |
| Yashnobod tumani | 399 |
| Olmazor tumani | 354 |
| Shayxontohur tumani | 326 |
| Sergeli tumani | 268 |
| Uchtepa tumani | 255 |
| Bektemir tumani | 131 |
| Yangihayot tumani | 100 |




2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami Toshkent shahridagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning 4,2 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning jami tashish va saqlash xizmatlari sohasidagi ulushi 45,9 foizni tashkil etdi;
- ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati yo‘nalishining jami tashish va saqlash xizmatlari sohasidagi ulushi 43,9 foizni tashkil etdi;
- pochta va kuryerlik faoliyati yo‘nalishidagi korxona tashlilotlarning ulushi esa jami tashish va saqlash xizmatlari sohasidagi ulushi 9,0 foizni tashkil etdi;
- havo transporti yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni jami tashish va saqlash xizmatlari sohasidagi ulushi 1,2 foizni tashkil etdi.

| Suv transporti | Havo transporti | Pochta va kuryerlik faoliyati | Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati | Quruqlikdagi va quvur transporti |
|---|---|---|---|---|
| 2 | 47 | 373 | 1 826 | 1 910 |

## Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

**Tadbirkorlik subyektlari soni** — **Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

# Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida ma'lumot

*2023 - yil yanvar - noyabr oylarida, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**106**

**18,2 %**



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

**1 261**

**12,8 %**



Sanoat

**1 145**

**16,6 %**



Qurilish

**5 490**

**20,3 %**



Savdo

**744**

**19,7 %**



Tashish va saqlash

**992**

**22,4 %**



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

**984**

**22,3 %**




Axborot va aloqa

**278**

**17,4 %**



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish

**3 400**

**18,1 %**



Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Mirzo Ulug'bek tumani | 1 796 | 19,3 % | Mirobod tumani | 1 305 | 19,2 % |
| Yunusobod tumani | 1 705 | 18,1 % | Shayxontohur tumani | 1 173 | 17,1 % |
| Chilonzor tumani | 1 660 | 17,9 % | Uchtepa tumani | 909 | 15,5 % |
| Yashnobod tumani | 1 383 | 20,1 % | Sergeli tumani | 874 | 19,5 % |
| Olmazor tumani | 1 325 | 18,6 % | Yangihayot tumani | 595 | 28,2 % |
| Yakkasaroy tumani | 1 306 | 18,2 % | Bektemir tumani | 369 | 17,8 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

584

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

9 816

Sanoat

6 893

Qurilish

27 080

Savdo

3 770

Tashish va saqlash

4 438

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

4 407

Axborot va aloqa

1 600

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

18 826

Boshqa turlar

2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 89 520 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 77 414 mingtasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Yunusobod tumani | 9 405 | Shayxontohur tumani | 6 875 |
| Mirzo Ulug’bek tumani | 9 329 | Mirobod tumani | 6 811 |
| Chilonzor tumani | 9 277 | Uchtepa tumani | 5 861 |
| Yakkasaroy tumani | 7 194 | Sergeli tumani | 4 480 |
| Olmazor tumani | 7 121 | Yangihayot tumani | 2 108 |
| Yashnobod tumani | 6 883 | Bektemir tumani | 2 070 |

# Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil yanvar - noyabr oylarida, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**1**
**4,3 %**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**39**
**3,6 %**

Sanoat

**16**
**4,6 %**

Qurilish

**328**
**8,6 %**

Savdo

**27**
**8,9 %**

Tashish va saqlash

**42**
**7,4 %**

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

**16**
**6,2 %**


Axborot va aloqa

**15**
**7,4 %**

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**64**
**3,8 %**

Boshqa turlar

**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Chilonzor tumani | 92 | 8,2 % | Yashnobod tumani | 37 | 5,9 % |
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 75 | 9,5 % | Mirobod tumani | 36 | 7,2 % |
| Shayxontohur tumani | 57 | 7,0 % | Sergeli tumani | 32 | 7,0 % |
| Olmazor tumani | 56 | 5,5 % | Yakkasaroy tumani | 32 | 6,2 % |
| Uchtepa tumani | 48 | 4,4 % | Yangihayot tumani | 26 | 13,2 % |
| Yunusobod tumani | 48 | 5,8 % | Bektemir tumani | 9 | 3,0 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni 8 289 tani tashkil qiladi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Chilonzor tumani | 1 123 | Yashnobod tumani | 629 |
| Uchtepa tumani | 1 102 | Yakkasaroy tumani | 513 |
| Olmazor tumani | 1 024 | Mirobod tumani | 499 |
| Yunusobod tumani | 834 | Sergeli tumani | 456 |
| Shayxontohur tumani | 818 | Bektemir tumani | 301 |
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 793 | Yangihayot tumani | 197 |

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil yanvar - noyabr oylarida, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**3**
**9,1 %**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**81**
**10,0 %**

Sanoat

**2**
**6,3 %**

Qurilish

**135**
**14,5 %**

Savdo

**6**
**18,8 %**

Tashish va saqlash

**99**
**16,9 %**

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

**4**
**9,3 %**


Axborot va aloqa

**7**
**9,9 %**

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**61**
**12,9 %**

Boshqa turlar

**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Sergeli tumani | 42 | 11,0 % | Shayxontohur tumani | 33 | 9,5 % |
| Uchtepa tumani | 42 | 20,6 % | Mirobod tumani | 32 | 20,3 % |
| Yashnobod tumani | 42 | 15,2 % | Chilonzor tumani | 28 | 10,9 % |
| Olmazor tumani | 41 | 10,8 % | Mirzo Ulug’bek tumani | 25 | 10,8 % |
| Yunusobod tumani | 38 | 10,9 % | Bektemir tumani | 22 | 19,1 % |
| Yangihayot tumani | 35 | 22,7 % | Yakkasaroy tumani | 18 | 11,5 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

33

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

807

Sanoat

32

Qurilish

931

Savdo

32

Tashish va saqlash

585

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

43

Axborot va aloqa

71

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

473

Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra 2022 - yilning mos davriga nisbatan 776 taga kamaygan.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Uchtepa tumani | 380 | Mirzo Ulug‘bek tumani | 231 |
| Olmazor tumani | 379 | Sergeli tumani | 204 |
| Yunusobod tumani | 349 | Mirobod tumani | 158 |
| Shayxontohur tumani | 347 | Yakkasaroy tumani | 157 |
| Yashnobod tumani | 277 | Yangihayot tumani | 154 |
| Chilonzor tumani | 256 | Bektemir tumani | 115 |

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023 - yil yanvar - noyabr oylarida, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**9**
**18,8 %**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**153**
**12,7 %**

Sanoat

**126**
**19,4 %**

Qurilish

**601**
**18,9 %**

Savdo

**57**
**17,2 %**

Tashish va saqlash

**55**
**15,3 %**

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

**163**
**22,0 %**


Axborot va aloqa

**21**
**18,1 %**

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**255**
**14,0 %**

Boshqa turlar

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Mirzo Ulug’bek tumani | **296** | 23,3 % | Shayxontohur tumani | **76** | 13,4 % |
| Mirobod tumani | **263** | 17,4 % | Sergeli tumani | **67** | 19,2 % |
| Yunusobod tumani | **182** | 17,9 % | Olmazor tumani | **50** | 12,3 % |
| Yakkasaroy tumani | **169** | 14,0 % | Bektemir tumani | **42** | 20,4 % |
| Yashnobod tumani | **116** | 15,4 % | Uchtepa tumani | **35** | 14,1 % |
| Chilonzor tumani | **113** | 14,9 % | Yangihayot tumani | **31** | 20,3 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Toshkent shaxrida 1-dekabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soni 8446 tani tashkil etib, unda yetakchi o‘rinni 2 007 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 23,8 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi 12,7 foiz), Xitoy (ulushi 12,3 foiz), Qozog‘iston (ulushi 9,0 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 5,3 foiz) davlatlari ham yetakchilardan hisoblanadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Mirobod tumani | 1 509 | Shayxontohur tumani | 567 |
| Mirzo Ulug’bek tumani | 1 271 | Olmazor tumani | 408 |
| Yakkasaroy tumani | 1 208 | Sergeli tumani | 349 |
| Yunusobod tumani | 1 018 | Uchtepa tumani | 248 |
| Chilonzor tumani | 758 | Bektemir tumani | 206 |
| Yashnobod tumani | 751 | Yangihayot tumani | 153 |

# Davlatlar kesimida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2023 - yil yanvar - noyabr oylarida, birlikda*

| | |
|---|---|
| **Rossiya Federatsiyasi** | **404** |
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **285** |
| **Turkiya Respublikasi** | **128** |
| **Qozog‘iston Respublikasi** | **124** |
| **Ozarbayjon Respublikasi** | **31** |
| **Buyuk Britaniya** | **14** |

Toshkent shahrining o‘sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo‘yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o‘sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O‘zbekiston hukumati o‘z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko‘paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

# Davlatlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

| | |
|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 2 007 |
| Qozog‘iston Respublikasi | 758 |
| Turkiya Respublikasi | 1 072 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 1 036 |
| Afg‘oniston | 220 |
| Janubiy Koreya Respublikasi | 445 |
| Eron Islom Respublikasi | 132 |
| Buyuk Britaniya | 211 |
| Belorussiya Respublikasi | 158 |
| Hindiston Respublikasi | 211 |
| Boshqa Davlatlar | 2 195 |

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 2 559 tasi qo‘shma korxonalar, 5 887 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

# Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy va qo‘shma korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

| xorijiy korxonalar | | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| 1 128 | Mirobod | 381 |
| 918 | Mirzo Ulug‘bek | 353 |
| 881 | Yakkasaroy | 327 |
| 726 | Yunusobod | 292 |
| 515 | Chilonzor | 243 |
| 491 | Yashnobod | 260 |
| 366 | Shayxontohur | 201 |
| 238 | Sergeli | 111 |
| 233 | Olmazor | 175 |
| 169 | Uchtepa | 79 |
| 125 | Bektemir | 81 |
| 97 | Yangihayot | 56 |

# Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*




So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 - yil 24 - avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275 - son qarorining 1 - ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2023 - yil 1 - dekabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.








## Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz va Toshkent shahar statistika boshqarmasining www.toshstat.uz rasmiy saytidan (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkin.

Statistik registrlarni yuritish bo‘limi
Tel.:71 203 88 31